

O‘QITUVCHI NUTQI VA MAHORATI

Dilfuza Paraxadova

JDPI O‘zbek tili va adabiyoyi fakulteti talabasi

So‘z –qurol ,maqsad esa ko‘ngil, ko‘ngil

O‘rtanmasa ,extirolarga to‘lmasa, so‘zda

ta’sir bo‘lmaydi.

(J.Rumiy)

O‘ramizda so‘zga chechan, so‘zga usta, so‘z ustasi so‘zamol ,so‘zamollik sozni boplaydi, gapni do‘ndiradi, gapga usta,chiroyli gapiradi kabi iboralar bor . Keltirilgan so‘z va iboralarning barchasi inson nutqining, inson nutqi kamolotining darajasini umumiy, jo‘n nutqdan farqlanadigan nutq namunalarini ifoda qiladi. Ammo hamma ham bir xilda gapga chechan, o‘ta chiroyli gapiruvchi bo‘lavermaydi. Nutqiy chechanlik, notiqlik alohida qobiliyatdir.

Chinakam notiqlik mahoratiga ,notiqlik san’atiga tabiiy qobiliyat ,shu bilan bir qatorda o‘z tili nutqi ustida tinimsiz ishlashi natijasida va tajribali ustozlari yordamida erishadilar .Bizning Sharqda, xususan, O‘zbekistonda notiqlik san’ati azaldan ma’lum va mashhur bo‘lgan .Chunki manoli va madaniyatli, bejirim gapira bilish so‘zning orqa o‘ngini, munosib o‘rnini farqlay bilish ,nutqiy fahm farosat nutq odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqning ma’naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan. Mashhur va taniqli notiqlik ham o‘z nutqlarining namunali bo‘lishini ta’minlashda quyidagi asosli holatlarga alohida e’tibor berganlar:

1.O‘zi toxtalmoqchi bo‘lgan masala yoki mavzuni chuqur o‘rganish ,o‘zlashtirib olish ,undagi masalaga o‘z munosabatini aniq belgilab olish .

2.O‘z dunyoqarashiga ega bo‘lish ,so‘z bilan ish birligi ,nazariya bilan tajribaning dialektik birligiga erishish ,fikrlarni ilmiy asoslash .

3.Mavzuga mas'uliyat bilan yondashish ,uni omma oldida to'liq ochib berishga yoritishga diqqat qilish.

4.Har nutqqa jiddiy tayyorgarlik ko'rish , jumladan, ma'ruzani nimadan boshlashdan tortib, nima bilan tugatishgacha jiddiy o'ylab olish ,masalalarni o'rta tashlash ,ketma-ketligini yaxshilab belgilab olish, ularning o'zaro bog'lanishini ta'minlash ,ma'lum rejalar yoki reja-konspektlar tuzib olib o'zi uchun alohida va keng toxtalish zarur bo'lgan o'rinlarni belgilab olish va boshqalar.

Avvalo har bir inson kim bo'lishi va qaysi sohaning egasi ekanligidan qat'iy nazar chiroyli va ma'noli so'zlash qobiliyatiga ega bolishi lozim. Chunki insonlar nutq orqali munosabatga kirishar ekan ,bir-birlarini tushunmog'i o'zaro kelishib olmog'i uchun nutqi ravon bolmog'i maqsadga muvofiq . ”Nutq qudratli kuch, u ishontiradi ,undaydi ,majbur etadi“- ,degan edi mashhur g'arb donishmandi B.Emirson .Demak,nutq kishilarni ishontirish san'atidir .Mashaqqatli kasb egalari bo'lgan o'qituvchlar ham o'quvchilar bilan munosabatga kirishar ekan ,avvalo, bolalarni bilim olishga ishontirishi,undashi lozim.

O'quvchini ishontirish uchun avvalo ,o'qituvchi ishonarli gapirishi ,nutqi ravon ,tushunarli, chiroyli dalillangan ,puxta asoslangan bo'lishi lozim. Shuningdek ,bu so'zlarga avvalo o'zi rioya qilmog'i lozim .Ochiq chehrali o'qituvchi bola mehrini tez qozonadi .Bu saxovatli yurak egalari o'zining keng feli ,o'tkir zehni va nigohi bilan ham o'quvchi qalbiga yo'l topadi. Shuningdek , madaniyatli o'qituvchi o'quvchi shaxsini hurmat qila oladi ,unga shunday muomalada bo'ladiki bola bu muloqotdan ozining ahamiyatli,kerakli ekanini his qiladi.Ahamiyatli bo'lish hissini tuygan bola qalbida o'qituvchi siymosi yanada ulug'lanadi. O'quvchini hurmat qila olgan o'qituvchigina chinakam ustozga aylanadi.

Ochiqchehrali odam ikkiyuzlamachilikdan yiroq bo'ladi. Ochiq chehralilik ,ayniqsa, o'qituvchi uchun zarur fazilatlardandir. Zero, o'quvchilar qalbiga yo'l topish ,mehrini qozonish, o'z fanining chinakam ixlosmandi qila olish xazilakam ish emas .Buning uchun albatta o'qituvchining keng feli-yu, saxovatli qalbi,o'tkir zehni-yu teran fikri ziyrak nigohi zarur .Agar o'qituvchi o'quvchilarning yuragiga

yaqin narsalarni berolmasa ularda oziga nisbatan iliq hissiyot hosil qilolmasa ,ular ko'ngliga yo'l topishi judayam qiyin bo'ladi. Inson hulq atvorida eng muhim qonun bor, agar biz bu qonunga amal qilsak hech qachon ko'ngilsiz holatga tushmaymiz.

Chunki bu qonun o'quvchilarni ko'proq o'zimizga moyil qilishga yordam beradi .Lekin biz uni ozgina buzishimiz bilan darrov ko'ngilsizlikka uchraymiz .Tajribali o'qituvchilar suhbat chog'ida inson ko'nglini asrashga, unga muloyimlik bilan yo'l topishga harakat qiladilar. Tajribali o'qituvchilar biror jiddiyroq fikrni aytishdan oldin tinglovchisini suhbat mavzusiga tayyorlab olishga intiladilar .Shunday qilinganda tinglovchi har qanday hayajonli va qayg'uli xabarlarini ham ancha yengil qabul qiladi va to'g'ri munosabatda bo'ladi .Inson qalbini zabt etish uning muhabbatini qozonish uchun kop narsa kerak emas ,shirin so'z ,samiymiy muomala kifoya .

Inson butun umri davomida o'z nutqini takomillashtirib boradi . U tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali nutqning go'zal ,ravon , ifodali ,tasirchan bo'lishiga intiladi .Zero, go'zal va tasirchan so'zlay bilish ham san'at. Lekin bu san'atdan bebaxra bo'lsachi ?Bu aslo kechirib bo'lmas holdir.Qaysi fanni o'qitishdan qat'iy nazar o'qituvchining asosiy quroli ,ta'bir joiz bo'lsa ,ketmoni uning nutqidir. Ketmon o'tkir bo'lsa ,yer ham ,ketmonchi ham huzur qiladi ,agar ketmon o'tmas bo'lsa yerning ham ketmonchi dehqonning ham axvoliga voy bo'ladi .Xuddi shunday o'qituvchining nutqi o'tmas bo'lsa uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo'lmasin, o'ziga ham tinglovchi yoki o'quvchiga ham azob .Ona tilida puxta ,londa va shirador nutq tuza bilish masaslasi va mahorati matematika o'qituvchisi uchun ham ona tili o'qituvchisi uchun hambirday zaruriy fazilatdir.

O'qituvchi go'zal o'zini ham so'zini ham qiynamaydigan ravon va iboralarga boy nutq bilan o'quvchilarni mahliyo etib bermoqchi bo'lgan bilimini yosh inson shuuriga osonlik bilan olib kiradi .

Zotan, ona tili milliy ma'naviyatimizning dunyoni teran idrok etishimizning zaminidir .

Soʻz va uning qudrati buyukligiga yana bir misol Husayn Boyqaro uzoqqa ishkorga ketgan chogʻida sevimli malikasi ogʻir betob boʻlib bu dunyodan koʻz yumibdi ,bu qaygʻuli habarni shohga yetkazgan kishiga shubhasiz oʻlimga mahkum etiladi .Saroy aʻyonlari Navoiydan yordam berishini soʻrashibdi .Navoiy shunda quyidagi satrlarni bitibdi ,

Sarvigulning soyasinda soʻldi gul, netmoq kerak ?

Maktubni choparlar shohga yetkazishibdi .Bu satrlarni oʻqigan Husayn Boyqaro shunday javob yozibdi :

Sarvidin tobut yasab ,guldin kafan bichmoq kerak .

Saroy ahli chopar keltirgan habardan hursand boʻlib,soʻzning qudratiga qoyil qolishgan va dafn marosimiga kirishgan ekan.

Mavzuni xulosalar ekanmiz, fan –texnika va jamiyat rivojlangan sari oʻqituvchi zimmasiga yanada masʻuliyatli vazifalar yuklanadi. Chunki u jamiyatdan bir qadam oldinda yurmogʻi shart. Shundagina u tarbiyalagan oʻquvchi jadal surʻatlar bilan rivojlangan zamon talablariga javob bera oladi. Bu vazifalarni amalga oshirishda oʻqituvchining nutqi asosiy vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

- 1.Poʻlat Nosirov ,Oʻzbek nutq madaniyati :Toshkent -2004.
- 2.T.Qudratov ,Nutq madaniyati asoslari :Toshkent -1993.
- 3.N.Mahmudov , Marifat manzillari : Toshkent -1999.
- 4.www.ziyonet.uz.